

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- «V» kurs talabasi

Masharipova Guljohonning

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

fanidan

«Ogahiy she’riyatida mifologik obrazlar»

mavzusida tayyorlagan

K U R S I S H I

NUKUS – 2015

M U N D A R I J A

1. Kirish
2. Badiiy estetik tafakkur va obraz takomili
3. Ogahiy ijodida diniy-tarixiy obrazlar
4. Xulosa
5. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

KIRISH

Yozma adabiyotning o`ziga xos an`analari mavjud bo`lib, bu an`analar bevosita adabiyotshunoslikning ko`p sohalari bilan bog`liq. Mumtoz adabiyotning asrlar osha davom etib kelayotgan ana shunday an`analaridan biri ijodkorning xalq ma`naviy boyligini, diniy va axloqiy qarashlarini puxta egallab, undan ijodiy foydalanishida ko`rinadi. Bu holat o`tmish shoirlarimizning xalq og`zaki ijodi va yozma adabiyotda keng tarqalgan obrazlarga ma`lum bir g`oyaviy-estetik maqsad bilan murojaat etishlarida yanada yaqqol namoyon bo`ladi.

Ogahiy she`riyatida mifologik va diniy-tarixiy obrazlar g`oyatda rang-barang bo`lib, ularning ayrim belgi va xususiyatlari she`riyatda ramzga aylanib ketgan.

Mumtoz she`riyatdagi an`anaviy obrazlarni alohida shoir asarlari, xususan, lirikasi asosida tahlil qilish o`sha ijodkor dunyoqarashi, badiiy mahorati, iste`dodi qirralarini teranroq idrok qilish va kashf etishda qo`l keladi.

Shubhasiz, o`zbek adabiyoti tarixining har bir davriga oid shoirlar ijodiy merosini an`anaviylik va o`zaro mushtaraklik, shuningdek, individuallik nuqtai nazaridan tadqiq qilish lozim. Hozirgi davrda milliy va tarixiy – ma`naviy merosimizga e`tiborning ortganligi, o`zlikni anglash davlat siyosati darajasiga ko`tarilganligi bois, fol`klor va yozma adabiyotni o`zaro hamkorlik va aloqadorlikda ko`rsatadigan tadqiqotlarga kuchli ehtiyoj seziladi. Zero, o`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi.

XIX asr o`zbek adabiyoti, Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Muhammad Rizo Ogahiy adabiyotimiz tarixida o`zbek mumtoz adabiyotini Yangi taraqqiyot pog`onasiga ko`targan zabardast adib, bilimdon muharrir, zakiy ta`b mutarjimdir. Prezidentimiz I.Karimov haqli

ravishda ta'kidlaganidek: «Xorazm va Xiva zaminida yashagan Pahlavon Mahmud, Sulton Vays, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Baqirg'oni, Baqovaddin Vala dva uning buyuk farzandi Jaloliddin Rumi, Abul-Qosim al-Xorazmiy, Ismoil Jurjoni, Sirojiddin Sakkokiy, Munis, Ogahiy, Bayoni, Safo Mug'ani, Chokar, Sheroziy, Hojixon, Bola baxshi kabi o'nlab va yuzlab allomalar, shoir va san'atkorlar nomini biz bugungi avlod vakillari cheksiz extirom bilan tilga olamiz va boshimizga ko'taramiz»¹.

Ogahiy she'riyatida mifologik va diniy-tarixiy obrazlar munosabatini o'rganish XIX asr o'zbek adabiyoti rivojiga xos jihatlarini aniqlash, adabiy jarayonning takomillashishi, milliy-hududiy o'ziga xoslikning namoyon bo'lishi, shoirning individual uslubi va tili, badiiy – estetik mahoratini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

XIX asr o'zbek adabiyotining g'oyaviy-estetik taraqqiyoti va takomilida muhim o'rin tutgan mifologik va diniy-tarixiy obrazlarning yozma adabiyot bilan o'zaro ta'siri va boyishi masalasini diqqat markazida tutib, quyidagi vazifalarni bajarishga o'rindik: poetik an'ana va o'ziga xoslik masalalarni Ogahiy lirikasidagi an'anaviy obrazlar bilan bog'liqlikda tadqiq etish, o'zbek fol'kloridagi mifologik va demonologik obrazlarning shoir talqinida muayyan semantik o'zgarishlarga uchraganligini yoritish, Ogahiyning mifologik, diniy-tarixiy obrazlardan ijodiy foydalanish va o'ziga xos kashf etishdagi poetik mahoratini ilmiy asoslash, yozma adabiyotga va fol'klorga xos an'anaviy obrazlar hamda badiiy tasvir vositalarining mumtoz adabiyotdagi ko'rinishlarini qiyosiy tahlil etish, diniy –tarixiy obrazlarning o'zbek she'riyati, xususan, Ogahiy lirikasidagi majoziy mohiyatini ko'rsatish, xalq dunyoqarashi, moddiy va ma'naviy madaniyati urf-odatlarini va turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan mifologik obrazlarning yozma adabiyotga kuchganini Ogahiy ijodi misolida ko'rsatish, shuningdek, Ogahiyning san'atkorligini ochib berish.

BADIIY–ESTETIK TAFAKKUR VA OBRAZ TAKOMILI

Soʻz sanʼatining dastlabki namunalari qadim zamonlarda dunyoga kelib, unda insoniyatning porloq kelajak haqidagi orzu niyatlari turli mifologik obrazlar orqali aks ettirilgan. Ibtidoiy odamning oʻziga sirli koʻringan tabiatni bilishga intilishi natijasida dastlabki mif va afsonalar yaratilgan boʻlib, ularda mifologik obrazlarning ilk namunalari oʻz aksini topgan. Miflarda yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar mujassamlashgan. shuning uchun koʻpgina mifologik obrazlar ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurash fonida gavdalanadi.

Mifologik obrazlarning taraqqiyotida qadimgi odamning dunyoqarashi, turmush tarzi, urf-odat va marosimlari ham muhim rol oʻynagan.

Xalq hayoti va ijodidan olingan ilhomgina badiiy mahoratning yanada jozibaliroq boʻlishini taʼminlay oladi. A.N.Veselovskiy tarixiy poetika haqida gapirib, adabiyotga miflarning taʼsiri katta ekanini, koʻpgina syujetlar oʻz ildizlari bilan mifologiyaga borib taqalishini qayd qilib oʻtadi. Azal-azaldan mumtoz adiblarimiz asosiy gʻoyani oydinlashtirish, yanada chuqurlashtirish maqsadida mifologiyadan, anʼanaviy qadriyatlardan keng foydalanishgan. Shoirlarimiz lirik qahramon ruhiy olamini kashf etishda folʼklor va yozma adabiyotda faol qoʻllaniladigan mifologik obrazlarga murojaat qilishgan.

Mumtoz sanʼatkorlar asarlarida mifologik obrazlar oshiq va maʼshuq xarakteri, sifatlari, kechinmalarini yoritishda vosita, asos boʻlishdan tashqari sheʼriyatning xalqchil ruhi va xalq qalbiga hamohang boʻlishini, hayot bilan uzviy bogʻlanishini taʼminlashga xizmat qilgan.

Ogahiy lirikasi ham anʼanaviylikka hamohang boʻlgani holda, unda shoirning poetik mahorati, falsafiy-estetik qarashlari ifodalangan. Shu bois, Ogahiy gʻazallarida oʻzi yashagan davr hayoti haqidagi realistik

tushunchalar, o`ziga xos (o`xshatish, ramz, istiora va ifatdoshlar) tasvir vositalari qatnashadi.

Ogahiy o`z ijodida faol qo`llagan mifik obrazlardan biri Xizrdir. adabiyotshunoslikda bu obrazning kelib chiqishi xususida turli hil fikrlar mavjud. e.E.Bertel`s uni qadimgi o`simliklar olami bilan aloqador xudolarga

Xizr o`zining rang-barang xislatlariga ega bo`lib, uning uchun ilk nibat doimiy barhayotligi, donoligi va tiriklik suvining egasi ekanligidir. Xizrning tiriklik suvi jonsizga jon ato qilishga qodir. U kecha-yu kunduz olam kezib yuradi. O`rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan tasavvurlariga ko`ra, u nuroniy chol sifatida gavdalanadi. Xizrga yo`liqqan kishi go`yo bir umr baxtli bo`ladi. Xalq uni Xo`jai Xizr, Xizr bobo, Xazrati Xizr deb ham ataydi.

Lirik qahramon ko`nglining toza va tiniqligi holati Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida hayratlanarli tarzda ifodalangan. Majnunning firoq g`amida “tandir ichidagi o`tdek o`rtanishi”, “ko`ngil o`tidan temir bandi suv bo`lgani” haqida so`z yurituvchi ushbu doston Ogahiy ijodiga ham ta`sir etganligini ilg`ash mumkin.

Shoir yozadi:

Ul pari hajrida o`rtandi fig`onimdan falak,

Ohidin tushsa tong ermas kulbai Majnunga o`t.

Ogahiy lirik qahramon ham hijron azoblarida qiynalayotgan oshiq. uning ishq o`ti g`ussasi ko`nglinigina emas, falakni ham o`rtaydi. Qayg`udan azob chekayotgan ko`ngilning o`rtanib “oh chekishi”, falakka fig`on solishi muqarrar. Ana o`shanda ko`ngilni o`rtayotgan ayriliq o`tining yolqinlari Majnun kulbasiga ham o`t solsa ne ajab. Baytda navoiyning qahramoni Majnun qismatiga ishora qilinib, oshiqning ham ilohiy yor – “ul pari” hajrida qiynalayotgani aytiladi. Ayni choqda u yuzlarcha hasta notavonlar ko`ngliga ham o`t solmoq ilinjidadir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Ogahiy ijodiga chuqur nazar tashlasangiz, Navoiy dostonlaridagi Layli va Majnun, Farxod va Shirin kabi oshiq va ma'shuqalarning ichki va tashqi holatlari, ruhiy iztiroblari bilan yaxshi tanish bo'lganligi hamda ta'sirlanganligi ayon bo'ladi.

Ul pari ko'yiga gar kirsalomat ahli,

Ey junun ahli, xujum aylab olarni qovolang.

Ogahiy lirik qahramoni Majnun xissiyotlariga izdoshligidan baxtiyor. U jamiyat, zamon va muhit qarshisida taslim bo'lmagan, haqiqiy ishqning fano bosqichiga ko'tarilib, ruhim qushini boqiy hurlikka erishtirishga intilgan oshiqdir.

Shoirning devon tartib berishdan ko'zlagan bosh maqsadi ham ana shu botiniy mazmunga ishq ahlining diqqat-e'tiborini qaratishdan iborat:

Chun uqubon ul pari qilmas amal mazmuniga,

Bas sanga, ey Ogahiy, tartibi devondin ne sud .

Xullas, Ogahiy pari haqidagi xalq ishonch-e'tiqodlari, afsona va rivoyatlar mazmunidan, mumtoz adabiyot an'alaridan chuqur xabardor bo'lgan. Pari obrazi sifatlariga ishora qilish orqali shoir keng ma'nodagi yor husnu jamolini, oshiq qalbidagi botiniy kechinmalarni ifodalagan. Mehr va vafo, sabr va bardosh, sadoqat va samimiyat kabi pokiza insoniy tuyg'ularni ulug'lagan, komil inson bo'lishga da'vat qilgan. go'zal poetik lavha va manzaralar yaratgan.

So'z san'atining dastlabki namunalari qadim zamonlarda dunyoga kelib, unda insoniyatning porloq kelajak haqidagi orzu niyatlari turli mifologik obrazlar orqali aks ettirilgan. Ibtidoiy odamning o'ziga sirli ko'ringan tabiatni bilishga intilishi natijasida dastlabki mif va afsonalar yaratilgan bo'lib, ularda mifologik obrazlarning ilk namunalari o'z aksini topgan. Miflarda yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar mujassamlashgan.

shuning uchun ko`pgina mifologik obrazlar ezgulik va yovuzlik o`rtasidagi kurash fonida gavdalanadi.

Ogahiy Xizr obrazini Iso-Masih, Ilyos, Iskandar kabi obrazlar biln birgalikda qo`llar ekan. haqiqiy tiriklik chashmasi yor labid bo`lgani uchun ularning talablarini, xatti-harakatlarini behuda amallar deb biladi.

*Hayotafzo labing uzra xati jonparvaring ko`rgach,
Masiho birla hamdam Xizr payg`ambar xayol etdim.*

Ogahiy lirik qahramoni irodasi mustahkam, sabotli va matonatli inson. U ko`nglini saodatga etaklovchi ma`rifatga musharraf bo`lishga chog`lagan:

*Agar hayvon zulolin Xizr bersa og`zimga olmon –
Ki, durdi boda lutf etsa manga gulchehra soqiy bas.*

Ma`lumki, mumtoz she`riyatda “soqiy” – ma`rifat ilohiy ishq mayini tarqatuvchi, “durd bodi” (may quyqasi) – ma`rifat va qanoatning timsoli.

Binobarin, baytning mazmunida oshiqning ishq, ma`rifat sirlaridan ogoh bo`lishga intilishi, ishtiyoqmandligi mujassam. Mayning poklovchilik xususiyati inobatga olinsa, ma`rifat bidasidan ichib, ya`ni “ilmu irfonga ega bo`lib olib, haqiqat sirlarini egallamasang, komilikka erishmasang abadiy tiriklikdan va foyda bor?”, degan fikr ifodalayotgani anglashiladi.

Demak, Haq siridan ogoh (shoirning tahallusi Ogahiy ekanligi bejiz emas) ulug`vor shoir Xizr va uning xususiyatlari vositasida jamiyatni sog`lomlashtirish, amalparastlik va nafsparastlik, xurofot va diniy taassub natijasida kelib chiqadigan turli illatlarning oldini olish, aql-idrok, ma`rifat nuri bilan hayotni bezamoq kerak, degan fikrni ilgari surgan:

*Bazmgohing ishratafzo jomining,
Loyiqidur obi hayvon tuhfası.*

Bu o`rinda ham “bazmgoh” – ma`rifat hosil bo`ladigan joy, “jom”ning ma`rifat ekanligidan intilish samarasiz ketmaydi, albatta, munosib

taqdirlanadi. ma`rifatli kishi abadiyatga daxldordir qabilidagi fikr ifodalanmoqda.

Tasavvuf falsafasiga ko`ra esa ilohiy go`zallikni his qilmoq uchun vahdat mayidan ichmoq lozim. A.Rustamov “may” so`zi va uning ma`nodoshlari “asarning suvratida kelsa haqiqat ma`rifati, unga bo`lgan ishq-muhabbat va uni idrok qilgandagi lazzatni bildiradi”, deb yozadi. N.Komilov ham shunga yaqin fikrni bildirib: “boda, sharob, may so`zlari majoziy ma`noda muhabbat shavqini bildirib keladi”, - deb ta`kidlaydi. Bu yo`lda inson tangridan boshqa narsadan o`z ko`ngligini poklamog`i lozim. Agar u ko`z oldida turgan maavhum narsalardan o`z ko`nglini poklamas ekan, haqiqiy maqomga erisha olmaydi. Buni yaxshi tushunib etgan shoirning “men”i Xizrning doimiy barhayotlikka erishtiruvchi tiriklik suvidan voz kechishga tayyor. Uningcha, ilohiy yor jamolini ko`rishga musharraf bo`lish dunyodagi barcha o`tkinchi holatlardan ustundir. Bu yo`lda mahbuba yodi va qanoat unga hamrohdir.

Ogahiy Xizr obrazi bilan bog`liq o`rinlarda Sharq adabiyotidagi badiiy tasvir vositalaridan ham ijodiy foydalanadi, poetik vositalarning imkoniyatlarini kengaytiradi va ularni yanada boyitadi. Bu esa hayotiy manzaralarni yorqinroq gavdalantirishga, baytlarning lafziy nazokatini, jozibadorligini ta`minlashga xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotda mifologik sub`ektlar antropologik qiyofaga ega bo`ladilar. Faqat syujet tahliligagina tayanib, mifning shakliy transformatsiyasi, diffuziyasi, funktsional xususiyatlari haqidagi to`la tasavvurga ega bo`lish mumkin emas.

Pari obrazi ham xalqning qadimiy tasavvurlari bilan bog`liq. Uning paydo bo`lishi, o`zbek she`riyatiga kirib kelishi, ma`no qirralarining rivojlanishi bevosita xalq mifologiyasiga borib taqaladi.

Tadqiqotchi O.Karimov pari haqidagi afsonalarning paydo bo'lishini zardushtiylik dini bilan bog'lar ekan, rus olimi G.P.Snesarevning fikrlariga tayanadi. Ammo rus olimining pari obrazini Eron mifologiyasi bilan bog'lashiga e'tiroz bildiradi. Chashmasi tadqiqotchi qadimgi forsiyzabon xalqlar (ular Xorazm hududida ham yashashgan – T.M.) bilan hozirgi Eron hududida yashovchi aholini bir-biridan unchalik farqlamagan ko'rinadi. O.Qayumov xalqimiz orasida pari haqida mavjud tasavvurlarga ko'ra ularning 170 mingdan ortiqligi va har biri muayyan vazifani bajarishini ta'kidlaydi.

Shomonistik fol'klorda parilar Ko'hi Qof yoki Bog'i Eramda maskan tutib, insonga va inson unga oshiq bo'lishi tabiiy holsanaladi. Ular o'ch olishi, boqiy yashashi, san'atni sevishi, ko'zdan g'oyib bo'lishi, ba'zan insonga shikast etkazishi, aqldan ozdirishi mumkin.

A.Afnas'ev qadimgi slavyan xalqlarida tabiat hodisalari (yomg'ir, shamol)ning hmiylari pari yoki suv parilari ekanligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi D.Begimova esa astronomiya (ilmi nujum) fanining yuzaga kelishini ham ibtidoiy mifologik tasavvurlar va hayotiy zarurat bilan bog'laydi. Folbinlik bashorati ilohiy karomat orqali ro'y beradi, deb hisoblanadi. Rabg'uziy farshta (o'tning yorug'ligidan) pari (o'tning yolidan) yaralgan bo'lib, nurdan yaralgan malak-farishta ko'kda makon tutsa, o'tning yolidan yaralgan jin-pari erda yashaydi, deb ko'rsatadi.

Ogahiy lirik qahramoni xayolan o'z mahbubasi bilan so'zlashadi. Unga maftunlikdan parishon bo'lgan ko'ngilning bunday suhbatini e'tiroz tug'dirmaydi:

*Chu deding telba ko'nglung kimgadur shaydou oshufta,
Eshitkil, ey pari paykar, sangodur bu, sangodur bu.*

Shaydo va oshufta oshiq samoviy yuksaklikdagi ko'ngil intilishlaridan mamnun. Uning ma'naviy-ruhiy olami nihotda go'zal. Shuning uchun ham u

ruhiy olamning sirli teranligini, mo`jizakor qudratini, “tafakkur boshi aylanib” – ko`ngil telbalik ixtiyor etganini, bularning barchasi mahbuba tufayligina ekanligini faxr va iftixor hissi bilan e`tirof etadi.

Yuqoridagi bayt badiiy tasvir vositalarining qo`llanilishi jihatidan ham alohida e`tiborga molik bo`lib, unda “badiiy tasviriy vositalarning eng ko`p uchraydigan xilidan bo`lgan lafziy san`atlardan” biri takrorga murojaat qilingan. Takror she`rda u yoki bu so`zni takrorlashni nazarda tutib, shoir misra yoki bayt tarkibida muayyan so`z yoki so`z birikmasi bir necha bor yangi maqsadlarda takrorlanishi mumkin. Bu san`atning asosiy xususiyati takrorlash vositasida so`z ma`nosini, uning mohiyatini ta`kidlab ko`rsatishdir.

Ogahiy mazkur baytda “sangodur bu” jumlasini takror qo`llash orqali oshiqning mahbubaga bo`lgan otashni sevgisini bo`rttiribroq tasvirlashga harakat qiladi. Shu bilan birga, takror lirik qahramon qiyofaini yorqinroq gavdalantirish, uning dil dardlarini ta`sirliroq mujassamlashtirish vaxifasini bajaradi.

Rus olimi G.P.Snesarev Xorazm afsona va rivoyatlari, shuningdek, shomonlarning amaliy faoliyatida ruhlar olamining vakili- parilar muhim rol` o`ynashiga shubha qilmaydi. U L.Ya.Shternbergerning Sibir` va Uzoq Shimoldan to`plagan manbalari, O.A.Suxarevaning Xorazm shomonligining boy faoliyatini kuzatishlari hamda muayyan shomon bilan bo`lgan muloqotlaridagi pari haqidagi tasavvurlarni atroflicha tahlil qiladi. Olimning ta`kidlashicha, asosiy funktsiyasi ko`ngli (yoki miyasi)da ruhlar o`rnashgan kishilarning diniy yo`l bilan davolashdan iborat bo`lgan shomonlar bu vazifani parilar yordamida bajaradilar. “Parilar odatda go`zal va ozoda kishilarga mehr qo`yishadi. Bordi-yu, qishloqda go`zal bir ayol bo`lsa-yu uni parilar sevib qolishsa, erining ayolga yaqinlashishiga monelik qilishadi. Pari bilan muloqotda bo`lgan pyolning esa o`z eridan ko`ngil soviydi. Boo`qa bir

ma'lumotga ko'ra esa, ba'zi bir xushsurat yigitlarga ilakishib qolgan parilar uzoq muddat uni qiynashi mumkinligi haqidagi gaplar uchraydi. Erkak pariga yo'liqqan ayol o'z qonuniy nikohdagi eridan farzand ko'rsa, pari mazkur go'dakka nafrat ko'zi bilan qarab, dushmanlik qilish boisidan u yashab keta olmasligi mumkin.

Rus olimi G.P.Snesarevning fikrlariga tayanib aytish mumkinki, Ogahiy "ishqingda rasvolanmasun" deganda xalq tasavvurida mavjud bo'lgan parilarga xos yuqoridagi sifatlarga urg'u bergan.

Diniy marosimni o'tkazish tamoili maxsus ixtisoslashgan kishilar qo'liga o'tmagan qadimgi davrlarda jamoa bo'lib raqsga tushilgan. Qoqiriq-suqiriq marosimi paytida ishtirokchilarning ham qiyqriqlar bilan bir-birining qo'llarini elkalariga tashlab, doira shakl asab raqsga tushishlari, harakatlarining sekin-asta kuchaya borishi ana shu ibtidoiy udumlarning qoldiqlaridir. Bunday teran arxaik shakllarning izlarini darveshlarning jahdu jadal bilan zikr tushishlariga o'xshab ketadigan kelin tushirish kunidagi xlfalar o'qigan she'rlarga boshqa ayollarning ham dastavval o'tirib, keyinchalik tikka turgan holda doira shakl yasab raqsga tushishlarini ham misol qilish mumkin.

G.P.Snesarevdan keltirgan iqtibosimiz birmuncha cho'ziqroq bo'lsa-da, yuqoridagi fikrlarni tasdiqlashda muhim ahamiyatga ega. Shubhasiz, Ogahiy mumtoz adabiyotimizning tasavvufiy mantig'ini chuqur anglab etgan va an'anani ijodiy davom qildirgan. Bizningcha, yuqoridagi baytlarning yuzaga kelishida nafaqat an'anaviy she'riyat balki shu bilan bir qatorda Xorazm fol'klori, turli davrga xos ishonch-e'tiqodlar, xalq an'ana va udumlarni yaqindan bilishlik ham muhim rol o'ynagan. Lirik qaxramon xatti-harakat va ruhiy holatida aql-idrokning unchalik amaliy xarakter kasb etmasligi esa, ogahiy birmuncha ibtidoiy davr e'tiqodlariga, shomonlik udumlari zavol topmagan aneanalarga tayanganligini ko'rsatishi jihatidan ibratlidir.

Ul pari ishq i aro jonbozlar ko`pdur, vale

Pokboz ermas biri bu oshiqi miskin kibi.

Parivash yor surati bilan o`ziga uchragan har bir kishini azobga giriftor qiladi. Uning go`zalligi qoshida ne-ne oshiqlar aqlu hushidan judo bo`lib, kecha-kunduz ohu fig`on chekishadi. Baytda keltirilishicha, ularning hech biri halollik, pokizalik va sadoqatda lirik qaxramoncha emas. Ushbu o`rinda parining pokiza va halol kishilarga yo`liqishi haqidagi xalq tasavvurlariga tayanilgan holda, oshiq sadoqatda yagonalik ramzi sifatida ulug`langan.

Ogahiy lirikasida pari obrazi bilan bog`liq ayrim o`rinlarda yor paridan ustun qo`yiladi. Shoirning tasavvuricha, ma`shuqa go`zalligi qoshida parilar yoqa ushlab qolishadi. Jumladan:

Qoshlarining imosidin yuz huru g`ilmon evrulur,

Yuzlaring siymosidin ming bog`i Rizvon evrulu.

Baytda ifodalanishicha, mahbuba qoshlarining imosiga yuz pari, yuzlarining go`zalligiga “bog`i Rizvon” ta`zim qiladi. “huru g`ilmon” “bog`i Rizvon” tashbehlari orqali mukammal go`zallik namunasi bo`lgan mahbubaning sifatlari ochib berilgan, ogahiy ma`shuqani yuksak sanash orqali tasavvufiy she`riyat an`anasiga ergashadi.

Demak, yo shu qadar go`zalki, bu yuksak go`zallikdan barcha aylanib-o`rgilsa arziydi. Chunki u xusni latofatda “yuz huru g`ilmon”dan, ming jannatdan ziyodadir.

Muallifning fikr va tuyg`ularini aniqroq tasvirlashida tasdir san`ati unga qo`l keladi. Takrorga asoslangan san`atlardan biri bo`lgan bu tasviriy vositada bir so`z baytning ikki joyida qaytariladi. Qo`llanilish o`rniga ko`ra takrorlanuvchi so`z baytning turli o`rinlarida qaytarilishi mumkin.

OGAHİY IJODIDA DINIY-TARIXIY OBRAZLAR

Diniy rivoyatlarning taraqqiyot bosqichlarini ko`zdan kechirish shuni ko`rsatadiki, islom bilan bog`liq bo`lgan payg`ambarlar obrazi xalq og`zaki ijodida maromiga etib, fol`klor asarlari va Qur`oni Karim orqali ezma adabiyotga ko`chgan. Ana shunday obrazlarga xos belgi va xislatlarga ijodkorning ishoralar qilishi orqali obrazli ifoda yuzaga keladi. Shoirlarimiz obrazlarning an`anaviy sifatla-rini sakdagani holda, ularni yangacha g`oyaviy bo`yoklar bilan bezaydi-lar. Natijada, «ijodkorning tafakkur mevasi sifatida yangi obraz-lar va ifoda tasvir vositalari maydonga keladi»¹. Bu esa shoirdan yozma adabiyot an`analarini, salaflari ijodini, yozma adabiyot va an`-anaviy obrazlar munosabatlarining bilimdoni bo`lishini talab eta-di.

Qur`oniy mavzular va obrazlarning jahon hamda o`zbek adabiyoti-ga ko`chib o`tishini Ogahiy lirikasi misolida kuzatish islomiy nuqtai nazardan ibratli bo`lish barob`rida, o`zbek adabiyotining is-lom adabiyoti bilan shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini yanada kengaytirishga imkon tug`diradi.

Sharq adiblari ijodidagi milliy xususiyatlar masalasiga to`xtalgan professor H.Karomatov mshshiy xususiyatlarning umumis-lom va umuminsoniy bashoratlar bilan chambarchas bog`liq holda na-moyon bo`lishini alohida ta`kidlab ko`rsatadi².

Ogahiy ijodida Isoning samoga ko`tarilishi va u erda makon tu-tib qolishi haqidagi rivoyatlarga ishoralar ko`plab uchraydi. Quyidagi baytda shoir ma`shuqani ulug`lash maqsadida Iso bilan bog`liq sifatlardan foydalanadi:

*Nega eldin tsochib er tutti ko`kda Isiyu Maryam,
O`lukni tirguza olsa labi mo`jiz bayoningcha. (2.35).*

Ma'shuqaning yuzi shu qadar go'zal va nurafshonki, u sharqni - kunchiqishni yoritganidan Quyosh ham xijratda qoladi. Va bu lahzada o'z nafasi bilan o'likni jonlantiruvchi Iso ham xijolatda o'rtanadi:

Ey, yuzingdin munfa'ildur oftobi hovari,

Vay damingdindur xijil Iso dami jonparvari.(1174)

Ma'shuqa a'zolaridan bo'lgan yuzni borliqdagi unsurlarga tash-bexlash orqali o'xshatishning rang va shakl, holat va ko'rinishlari bilan aloqador mubolag'ali tasvir yuzaga kelgan. Ba'zan esa, Ogahiy visol onlari tasvirida ham mubolag'a qo'llash usulidan foydalangan:

Garchi Iso nuptsidin topgap o'luk jon lazzatin,

Lek jonparvar so'zing yuz qotladur ondin laziz (1.161)

Ogahiy lirikasida Iso obraziniig ba'zan peyzaj tasviriga nis-batan qo'llanilganligani ham kuzatish mumkin:

Esib har soridin bo'stonlar ichra ruhparvar el,

Masiho mo'jizidin har nafas urgusi dam sahro,(1.84)

Bahor ayyomi tabiat go'zalligiga maftun bo'lgan shoir bog'u bo'stonlardagi dilkash manzaralardan esuvchi «ruhparvar el» larning mo'jizakorligini Iso mo'jizasi bklan qiyoslaydi. Biroq, yorning firoqida lirik qahramon chekayotgan g'am va anduhga na shahar, na sahrodagi dilkusho manzaralar taskin bera olmaydi. Illo, oshiq axliga bir necha kun tabiat qo'ynida ishrat qilish, do'stlar bilan suhbat qurish emas, balki yor vasliga etmoq mudtsaodir. Chunki, firoq o'tida yongan yurak taftini visolgana o'chira olishi mumkin. Baytda shoirning Iso mo'jizasini eslatib o'tishi orqali talmeh san'ati yaratilib, bu lirik qahramon kayfiyati va tabiatning maftunkor manzarasini to'laroq yoritib berishga xizmat qilgan.

Shoir lirik qahramonining ruhiy holati o'zgarib turadi. U hamisha ham tushkunlikka berilmay, yorning lutfu ehsoniga sazovor bo'lishiga umid ko'zi

bilan qaraydi. Sadoqat va vafoning timsoliga aylanib ketgan oshiq bir kun kelib o`z sevgisi mahbuba tomonidan yuksak baholanishiga ishonib yashaydi.

Gar o`luk jismimga kirs toza jon, ermas ajab

Kim, etushti lutf eshib Isoyi davronim bukun. (2.13)

Ulug` ishq kuychisk l\*fik qahramon qalbida tug`yon urayotgan soginch hislarini, visol armonlarini qanday ifoda etish yo`llarini izlay-di. Uning nazdida mahbuba vasfida muhabbat dunyosiga, inson va ilohiy go`zallikka yuksak baho berishdan ortiq maqsad bo`lmasa ke-rak. Shoirning lirik qahramoni o`zini shu qadar gunohkor va xoki-sor qilib ko`rsatadiki, bu orqali oshiklik dardi dunyoning barcha malomatu haqoratlariga bardosh bera olishga qodir mislsiz ruhiy qudrat ekani mubolag`ali ifoda etiladi.

Ogahiy ma`lum bir o`rinlarda Yusufning ayrim xususiyatlariga ishora qilib o`tadi. Bevosita yuqoridagi baytga qaytadigan bo`lsak, qissa va rivoyatlarda aks ettirilgan Yusuf jamolining nuri Bobil chohida ravshanlik taratganini eslamasak, baytni izohlash mushkul. Baytda ma`shuqa husnining beqiyoslshi Yusuf go`zalligiga qiyoslanib, lirik qahramonning sog`inch va hijron azoblari, iztiroblari, sami-miyati ko`tarinki kayfiyatda ifodaxanadi. Ma`shuqaning tashrifi oshiqning kulbasini yoritadi, nainki kulbasini, dilini ravshan qiladi.

Illo, ma`shuqaning jamoligina jas, balki buyuk qalb egasi sifatidagi mehr-shafqati, uning tashrif buyurib, ko`rsatgan iltifot-larida, hijron sitamlariga barham berishida namoyon bo`ladi:

Borib Yusuf jahondin, o`rkiga san,

Bu kun ko`si xilofat choldiig, ey sho`x. (1.151) Yoki:

Chun erursan husn Misrining Azizi, yo`ts ajab,

Kulluq aylab tegranga gar Mohi Kan`on evrulur. (1.190)

Bunday misollarni shoirning ko`plab g`azallarida uchratish mumkin. Quyidagi baytda Ogahiy «Yusuf» surasida mahzun ohanglarda

tasvirlangan Ya`qub alayhissalom ko`zining ko`r bo`lishi voqeasiga ishora qiladi:

Xiradur sansiz ko`zum, ko`rguz yuzingnikim, erur

Ko`rsa Yusufning jamolin diydai Ya`qub xo`b (1.102)

Ogahiy talmeh san`ati orqali oshiq va ma`shuqaning turli xil holatlari, majoziy va haqiqiy ishq iztiroblarini yoritib beradi. Shoir chohi Bobil, Mohi Kan`on, Ya`qub singari obrazlarni qo`llab, Yusuf obrazini to`ldiradi.

Yusufi Misriy ango gar qulluq etsa tong emas –

*Kim, bori olam aro husn a`liga sulton erur. (1.195) **

Ya`ni lirik qa`ramon sevgilisiga husn elining sultoni bo`lgan Yusuf ham kulluq qiladi. Chunki yorning kamoli Yusufni ham hayratga solishi shubhasizdir. Bunday baytlar zamiriga e`tibor qilinsa, mantiqan husn elining sultoni - vujudi mutlaq ekanligi ayonlashadi. Shuning uchun ham bu kabi baytlarni irfoniy nuqtai na-zardan taxdil qilmoq maqsadga muvofiqdir.

Nuh - Qur`onda zikr etilgan 28 payg`ambarning biri bo`lib, xalqimiz orasida u hakdagi qarashlarning keng tarqalishida Islom dinining roli katta bo`lgan. Payg`ambarlar kul`ti bilan bog`liq ob-razlarni o`rgangan elshunos olim G.P.Snesarev tadqiqotlari ham mazkur fikrni tasdiqlaydi.

Ta`kidlaganimizdek, Nuh obrazining o`ziga xos sifati suv to-shqinida tirik jonzotlarni asrab qolishi va uzoq umr ko`rganligi bilan xarakterlanadi. To`fon balosidan pand-nasihatlardan ibrat olish, hidoyat yo`liga yurish maqsadi ko`zda tutiladi. Uzoq umrdan esa iymonga da`vat etish kishi zimmasidagi sharaflari va ayni paytda o`ta mushkul vazifa ekanligi ma`nosi anglashiladi.

Nuh to`foni haqidagi afsona va rivoyatlar anchagina mashhur bo`lib, Dj.Frezerning yozishicha, to`fon haqidagi afsonalar Sharqiy

Osiyo, Avstraliya, Qadimgi Grek va Hind, Janubiy Sharqiy va Markaziy Amerika xalldari orasida keng yoyilgan¹.

Alisher Navoiy ham Nuh haqida so`z yuritganda Rabg`uziyga yaqin uslubni tanlaydi. «debdurlarki», «derlarki», «ba`zi depturlarkim», «rivoyat mundoqdurkim», «rivoyat budurkim», «xotirda andokdurkim» singari boshlamalar bundan guvohlik beradi⁴.

Anglashiladiki, diniy kitoblardagi Nuh payg`ambar haqidagi fikrlar asl mohiyatini saqlagan bo`lsa-da, Navoiy va Rabg`uziy asar-larida xalqimizning mifologik qarashlari va fol`klorning ko`plab janrlariga xos asarlari bilan qorishib, bu mavzu serqirra va ko`p qatlamli bo`la borgan.

Fol`klor asarlarida Nuh haqida gap ketsa, uning kemasi xususi-da ham to`xtalib o`tiladi. Xalqimiz tasavvuricha, uning kemasi Alloh tomonidan yaratilgan bo`lib, u orqali Nuh o`z yaqinlari va jonivor-larni halokatdan sakdab qolgan va erda qaytadan hayot jonlangan.

Mashhur elshunos G.P.Snesarev ma`lumotlariga ko`ra, Nuh kema-chilarning muqaddas piri hisoblanib, kemanding old tomonida unga deb maxsus joy qo`yishgan. Bu erda har qanday kishining o`tirishi ta`qikdangan. Mazkur joy Nuhniki hisoblangan, ya`ni tabulashtirilgan⁵. Ogahiyning Nuh obraziga murojaat qilishini u yoki bu ijod- korning ta`siriga emas, balki boshlang`ich manbalar bilan tanish shoirning mavjud an`anani davom qildirishi tarzida izohlash maqsadga muvofikdir.

Ogahiy Nuh obrazi vositasida dunyo, hayot, insoniy qadr-qimmat haqidagi o`z falsafiy qarashlarini ilgari surishga dunyoqarashini ochib berishga harakat qiladi:

*Ki ko`b rahravni nokam o`tkaribdur,
Na topti Nuh maqsudin, na Yofis. (1.134)*

Baytda inson hayotda bir yo'lovchidek ekani aytilib, dunyoning o'tkinchiligi, bevafoligi haqida so'z boradi. Shoir kishilarni hayotning, umrning qadriga etib yashashga chaqiradi.

Nuh umriga ishora qiluvchi baytlar Ogahiyning ustoz Munis ijodida ham mavjud bo'lib, u bu voqeaga ishora qilib boshqacha po etik lavha yaratadi:

Munqate' bo'l, bo'lma ko'p sargashtai tihi amal,

Yo'qsa topmassen rahi maqead, o'tub yuz umri Nuh¹.

Nuh payg'ambarlar ichida eng uzoq yashaganlardan biri sifatida e'tirof etilgan va bu haqda turli manbalarda turlicha ma'lumot berilgan. ««Qisasi Rabg'uziy»da «Nuh yuz yosharda yalavochliq keldi. Ellik o'ksuk ming da'vat qildi. To'fonda kezin uch yuz ellik yashadi. Taqi aymishlar, Odamdin to'fong'a tegi ikki ming yuz yil erdi. Anda kezin Nuhnung vafot bo'ldi»². Navoiy esa «Nuhning umri ming olti yuz bo'lg'ondin so'ng va ba'zi depturlarkim, ming uch yuz bo'lg'ondin so'ng olamdin o'tdi»³, - deb yozadi.

Umuman, Ogahiy ijodi Nuh va u xakdagi rivoyatlarda tilga olingan jihatlar o'zining yangicha talqinini topgan. Bu obrazning nechog'lik mahorat bilan yaratilganligi mazmun va ma'no ko'lamining kengligi bilan belgalanib, Nuh obrazining mohiyatini to'la angla-shimiz esa Ogahiy ijodini yaxshirok tushunib etishimizga imkon beradi.

Yozma adabiyotda keng qo'llanilgan an'anaviy obrazlardan biri - Ayyub payg'ambar bo'lib, uning bosh sifati sabru toqat va chidam egasi ekanligidir. Yahudiy va islomiy manbalarda bu payg'ambarga xos xislat va fazilatlar haqida ma'lumotlar mavjud.

She'rlarda Ayyub alayhissalomga ishora qilish er vasliga bo'lgan umidvorlikni, hijron azobl⁴riga sabr-bardoshni ifodalash-ning

o`ziga xo` vositasidir. Fikrimiz tasdig`ini Atoiy va Gadoiy ijodidan keltirilgan baytlar misolida kuzatishimiz mumkin:

Atoiyda:

Sango bersun ilohi Nuh umrin,

Mango ham furqatingda sabri Ayyub.

(Atoiy. Tanlangan asarlar. - T.,1960. 31-bet)

Gadoiyda:

Sunbuling tuttsuncha ne jabru jafokim chekmadim,

Sabri Ayyub ettim, ammo pgopdim oxir umri Nuh.

(Gadoiy. Devon. - T., 1973. 32-bet)

Har ikkala shoir ham judolik va hijron jabru jafolarida sabr-toqatli bo`lish g`oyasini ilgari ourishda mashaqqat va sinovlarga bardosh bergan Ayyub payg`ambarlarga, ayni paytda zalolatga botgan qavmni sabr-bardosh bilan haq yo`lga da`vat etgan va uzoq umr ko`rgan Nuh payg`ambarga ham ishora qilinadi. Lirik qahramonning o`z yoriga Nuh umrini tilashi yoki oshiqning «sabri Ayyub» tufayli Nuh umri-ga musharraf bo`lishi bir-birini to`ddiradi.

Har ikkala baytdagi lirik qahryamon ham mustahkam iroda egasi. Shu bois ular ma`shuqa nomini e`zozlash, unga samimiy tilaklar bildirish, yor vasliga erishish yo`lidagi qiyinchiliklarga sabr bilan chidashga, ezgu maqsadga etishga intiladilar.

Mumtoz shoirlarimiz ichida Ayyub obrazi eng ko`p Ogahiy she`riyatida uchraydi. Shoir lirikasida uchraydigan Ayyub bilan bog`liq baytlarni quyidagicha taxdil etish mumkin: 1. Lirik qahramon ruhiy dunyosini tasvirlashda Ayyubni o`rnak qilib ko`rsatuvchi baytlar, 2. Ayyubning sabr-qanoatda tengsizligani uqtirish orqali tasavvuf falsafasi g`oyalarini ilgari suruvchi bayt-lar Misollarga murojaat etamiz:

*Ey ko`ngulu osoyishi bazmi visol istar esang,
Chek baloyi hajr aplab sabr aro Ayyubluq. (1.291).*

Baytda Ayyub haqidagi rivoyat va afsonalarga ishora qilish yo`li bilan oshiqning hijron iztiroblari, qalb kechinmalari ifoda etilib, «baloyi hajr» chekmay turib, ma`shuqa vasliga etish mumkin emasligi aytiladi. Oshiqqa Ayyubni o`rnak qilib ko`rsatadi.

«Osoyish bazmi» va «baloyi hajr» bir-biriga qarama-qarshi qo`yilishi natijasida tazod san`ati yaratilgan.

Ayyub bilan bog`liq baytlar qatiga tasavvufiy ohanglar singdirilgan bo`lib, ularda shoir ilohiy yor visoliga erishish uchun oshiq ko`pdan-ko`p ruhiy qiynoqlar va azoblarga sabr bilan bardosh berishi, ana shundagana haqiqiy maqsadga erishish mumkinligani aytadi. Shoir bunda an`anaviy Ayyub obrazining o`ziga xos talqinini yaratadi.:

*Ey kungulu vasl istasang sabr et balou dardga
Kim, muqarrib tangriga bu shevadin Ayyub erur. (1.203)*

Ya`ni Ayyub balolarga sabr etib, Haqqa yaqinlashdi. Lirik qahramon ham ko`ngalga xitob qilib, «balou dardg`a» sabrli bo`lishni uqtiradi. Zero, sabr maqomida bo`lgan kishi oqibat istagiga etadi.

Tasavvuf ta`limotiga ko`ra, sabr-faqrdan so`nggi maqom. Bu hakda adabiyotshunos I.Haqqulov shunday fikrlarni ilgari suradi: «Bu maqomda (sabr maqomida - T.M.) solik tashqi dunyo mashaqqatlariga chidash bilan birga «har ne hakdin yuzlansa, tahammul pesha qilg`ay va har balo kelsa sabr qilg`ay». Alisher Navoiy sabrda e`tiqod manzi-lini ko`radi. Sobir kishining dodi, albatta, tangriga etadi... Sabr maqomi tasavvufda ham ruh ulug`vorligi, qalb pokligi va axdoq hurligini muhofaza etish vositasidir»¹.

Zotan, «sabr et balou dardg`a» kabi teran iboralarning mohiyatini Ogahiyning mislsiz sabr-qanoatli hayoti, e`tiqodi va shoir

ruhining ulug`vorligi, qalban pokligi bilan mushtarak holda tushunmoq kerak.

Shoir boshqa bir baytida ham ta`kidlaydi:

Hech kim mandek to`za olmas jafou javringa –

Kim, balo anvo`iga sabr etkali Ayyub ho`b. (1.102)

Umuman, Ogahiy lirik merosidagi Ayyub obrazi kishini qalb, yurak, ishq, e`tiqod kabi mavhum tushunchalarning mohiyatini to`la anglab etishga undashi bilan birga iroda mustahkamligani ta`min etishda katta o`rin tutadi. Ayyub obrazi atrofiga shoir xilma-xil ma`nolarni jam etib, ular orqali kishi ma`naviy yuksakligini kuy-lagan. Bu kabi she`rlarni o`qib mulohaza qilgan kishi har qanday qiyinchilik qoshida mustahkam iroda bilan turishga ruhan quvvat topa oladi.

Mumtoz adabiyotimizdagi eng sevimli obrazlaridan yana biri Sulaymondur. U hakdagi ma`lumotlar Qur`on va boshqa diniy kitoblarda bayon etiladi¹.

Xalq og`zaki ijodida Sulaymon va uning otasi Dovud haqida ko`pgina afsona va rivoyatlar to`qilgan<sup>2</sup> bo`lib, ularning ta`sirida yozma adabiyot namunalarida ham payg`ambarlar haqida ko`pgina hikoyatlar keltiriladi. Rabguziyniit ««Qisasi Rabg`uziy», Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asarlarida Sulaymon payg`ambar va "uning sifatlari Sharq fol`kloriga xos mubolag`ali fantastik tarzda aks etgan³.

Sulaymon payg`ambarning asosiy sifati hadsiz hokimiyat, kuch-qudrat manbai bo`lgan uzugi va mo`jizaviy taxt egasi, barcha tirik mavjudotlar uning izmida ekani, shamol, ins-jinslar, dev-alvastilar uning hukmida bo`lganligi bilin belgilanadi.

Klassik shoirlarimiz Sulaymon obrazi va u bilan bog`liq sifat xususiyatlarga murojaat qilib, bu orqali rang-barang lavhalar yaratishgan.

Alisher Navoiy lirik merosidu Sulaymon va uning an`anaviy xislatlari yangacha talqin etilgan. Shoir ijodidan quyidagi baytni namuna sifatida keltiramiz:

Gar Navoiy Sulaymon mulkicha bordur ne tong_u

Buki Bilqisi zamon nazmini tahsin aylamish⁴.

Maqta`da Sulaymon va Bilqiys nomining birgalikda qo`llanilishi diqqatga sazovor.

Ma`lumki, Bilqiys Yaman mamlakatining Saba` shahri malikasi bo`lib, quyoshga sig`inar edi. Sulaymon uni va qo`l ostidagi kishilar-ni hidoyatga boshlaydi. Malika Sulaymonning mo`jizalari va kuch-qudrati haqida eshitgach, buni o`z ko`zi bilan ko`rish maqsadida uning mamlakatiga tashrif buyuradi. Shunda Sulaymon (Allohning qudrati bilan) unga ko`pgina mo`jizalar ko`rsatadi. O`z taxtining Sulaymon :aroyida turganini va boshqa ko`pgina mo`jizalarni ko`rgan Bilqiys Allohning qudratiga shubha qilmaydi va iymon keltirib, Sulaymon Silan birga Allohga bo`ysunadi. Qur`oni Karim, «Tarixi anbiyo va xukamo», ««Qisasi Rabg`uziy»larda bu hakda qiziqarli ma`lumotlar b[^]rilgan¹.

Bevosita yuqoridagi baytga qaytadigan bo`lsak, shoirning she`riga Bilqiysi zamonning tahsin qilishi Sulaymon mulki bilan barobar. Navoiy mazkur baytida Sulaymon va Bilqiys obrazlari vositasida ijodidan, she`rlaridan faxrlanmoqda.

Baytga ikkinchi tomondan yondashadigan bo`lsak, shoir Bilqiys orqali Xaysidir temuriy malikalardan birini nazarda tutgan bo`lib, ijodining ular tomonidan tan olinishi iftixor, xayrixohlik alomati deb qabul qilmokda.

Ustozlari an`anasini ijodiy davom ettirgan Ogahiy ijodida Sulaymon obrazi o`zining turli-tuman xususiyatlari bilan namoyon bo`lib, ularni quyidagacha o`rganish mumkin: 1. Sulaymon nomi bilan bog`liq turli xil voqea-hodisalarga ishora qilish orqali ijodkor-ning g`oyaviy-estetik dunyoqarashini ochib beruvchi baytlar. 2. Yorni Sulaymonga o`xshatish va unga Sulaymon nisbati berilgan baytlar.

Bir nazar man notavonga tsilmas ul sultoni husn,

Mo`rlar manzur erur garchi Sulaymon olida. (1.66)

Munis Xorazmiy esa quyidagi baytida mo`r va Sulaymon voqeasiga ishora qilib shunday yozadi:

Tarab shaxti uza erdim Sulaymon,

G`amingdin ul sifatkim mo`r qildi².

Rivoyatlarga ko`ra, Sulaymon chumolini nihoyatda qadrlagan ekan. Bir kuni Sulaymonga butun jonzotlar tuhfa in`om qilishadi. Undan kimning sovg`asi qimmatliroq, deb so`rashganda, o`zidan ko`ra rg`irroq chigirtka oyog`ini ko`tarib kelgan chumolini ko`rsatadi.

Demak, chumoli zahmatkashlik timeoli. Shu bois, u hurmatga sazovor. Bundan chumoli va Sulaymon obrazi Ogahiy lirikasida birgalikda qo`llanilishi ham tasodifiy emasligi anglashiladi. Shoir ana shu voqeaga ishora qilish yo`li bilan oshiqning dilida tug`yon urayotgan ichki tuyg`ularni ochib beradi.

Ogahiy quyidagi qit`asida shohga qilgan she`rlari tuhfasini chumolining Sulaymonga chigirtka oyog`ini hadya qilgani tarzida ifodalaydi. Bunda shoir xarakteriga xos bo`lgan kamtarinlik, oddiylik, samimiylik yoritiladi.

Yo`tski galat apladim, o`shaki bir xasta mo`r,

Chekkusi poyi malax tuhfa Sulaymon sori. (1.43)

Shoir ayrim o`rinlarda yorni Sulaymonga o`xshatsa, ayrim hollarda esa, uni Sulaymon deb atab, unga tenglashtiradi.

Ofarinashga Sulaymondek topib hukming nufuz,

Tobiu farmonu amring jumla olam bo`ldi gput. (1.118)

Baytda Sulaymonning jumlai olamga hukmdorlik qilganligi tilga olinib, uning bu sifati ma`shuqaga ko`chiriladi. Jumla olam ma`shuqaning amru farmonida ekanligi qayd etiladi. Bunday baytlardan, asosan, vujudi mutlaqning go`zalligi, tengsiz kuch-qudrati anglashiladi:

Ul Sulaymon sariri husn pgo tsildi safar,

Bordi payki xotirim ul nav`kim bod olida. (1.85)

Xullas, Ogahiy ijodida Sulaymon obrazining qo`llanilishi katta ahamiyatga ega bo`lib, shoir univg an`anaviy sifatlarini o`ziga xos talqin qilish yo`li bilan mahbubaning etakchi belgilarini bo`rttiribroq ko`rsatishga diqqatini qaratadi, mo``jizaviy go`zallik timsoli bo`lgan yorning sifatlari o`quvchi ongiga ta`sirli singishiga astoydil harakat qiladi.

Anglashiladiki, shoir yashagan davrda ham Sulaymon haqidagi rivoyatlar ancha mashhur bo`lgan. Ogahiy Sulaymonga xos sifatlarni chuqur bilgan hamda o`z she`rlarida ulardan mohirona foydalangan.

UMUMIY XULOSALAR

Yozma adabiyotda asrlar osha taraqqiy etib kelayotgan an`analar mavjud bo`lib, ulardan biri mifologik va diniy-tarixiy obrazlarga ijodkorlarning ma`lum bir g`oyaviy – estetik maqsadda murojaat etijidir. Bu obrazlarning ayrim belgi va xususiyatlari mumtoz she`riyatda ramzga aylanib ketgan bo`lib, shoirlarimiz ularga ishora qilish orqali ma`naviy go`zallik, ta`lim-tarbiya haqida so`z yuritishgan, hayotiy muammolar haqida nasihatlar qilishgan, oshiq va ma`shuqaning turli holat, kechinmalarini ifodalashgan.

Har bir shoir o`z asarlarini mazmuni teran, mantiqan po`rma`no, ruhan ta`sirchan va shaklan ixcham bo`lishini ta`minlash maqsaditjda mavjud an`anaga murojaat qiladi, ijodiy o`zlashtiradi, muayyan darajada kengaytirishga harakat qiladi. Ogahiy ijodida ham mavjud an`anagsha munosabat o`ziga xos tarzda kechadi.

Ogahiy she`riyatida faol qo`llanilgan mifologik va diniy-tarixiy obrazlarni fol`klo va yozma adabiyotidagi genezisi, evolyutsiyasi, shoir lirikasida qo`llanilish sabablari, san`atkorning undan ko`zlagan maqsadlarini oydinlashtirish orqali mavjud an`anaga shoirning individual munosabatini tayin etish, shoir lirikasini poetik sehrini tahlil etish mumkin.

Olib borgan keo`zatish va qiyosiy tahlillarimiz quyidagi umumiy xulosalarga kelish imkonini berdi.:

- Ogahiy badiiy mahorat jozibasini kuchaytirish, she`rlarining xalq ruhi va qalbiga hamohang bo`lishi hamda hayot bilan uzviy bog`lanishini ta`minlash maqsadida fol`klor obrazlaridan poetik vosita sifatida foydalangan. Xalq og`zaki ijodi obrazlarining Ogahiy she`riyatidagi talqini va o`rnini belgilash shuni ko`rsatadiki, fol`klor XIX asr o`zbek adabiyotini ham g`oyaviy estetik taraqqiyoti va takomilida muhim manba bo`lib xizmat

qilgan. Fol`klor obrazlarining yozma adabiyotga ta`sirini Ogahiy lirikasi misolida o`rganish adabiyotdagi poetik an`ana va o`ziga xoslik masalalarini tadqiq etishga yordam beradi.

O`zbek fol`kloridagi mifologik va demonologik obrazlarning Ogahiy talqinida muayyan semantik o`zgarishlarga uchraganini xalq og`zaki ijodi va yozma adabiyot bilan qiyosan o`rganish shoir poetik uslubini o`ziga xosligini to`g`ri belgilashga yordam beradi. O`zbek adabiyotidagi obraz, uslub va an`ana muammolarini tushinib etishga ko`maklashadi.

Ogahiyning an`anaviy obrazlardan ijodiy foydalanishdagi o`ziga xos mahoratini ilmiy asoslash adabiy jarayonining takomillashishi, XIX asr o`zbek adabiyotiga xos jihatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Til boyligi va go`zalligidan san`atkorona foydalangan shoir tashbeh, talmeh, tanosib, tajohuli orif, takror, istiora, mubolag`a, irsolu masal va boshqa badiiy tasvir vositalarini qo`llab, ularni fikr va g`oyani yorqinroq badiiy ifodalash uchun xizmat qildiradi. Bu singari badiiy san`atlarning mumtoz adabiyotdagi ko`rinishlarini Ogahiy lirikasi misolida tahlil etish o`sha davr adabiyotining o`ziga xos qirralarini yaratishga asos bo`ladi.

An`anaviy obrazlarning muayyan qismi islom bilan bog`liq. Mazkur obrazlarning istioraviy – majoziy mohiyatini Ogahiy ijodi misolida ko`rsatish adabiyotdagi milliy ohanglarni, Qur`onning adabiyotdagi sintezini, ma`lum bir davrda o`zlashtirish darajasini, shoir lirikasidagi shoir ma`rifat izlarini anglab etishda muhim omildir. Bu esa Ogahiyning ijodkor sifatida shakllanishiga ta`sir ko`rsatgan zaminning o`rnini belgilashga yordam beradi.

Ogahiy she`riyatida Iso, Yusuf, Ayyub, Nuh, Sulaymon kabi payg`ambarlar obrazi, Qorun, Iskandar, Majnun singari tarixiy adabiy

qahramonlar obrazlari faol ishtirok etadi. Shoir ularni o'ziga xos etakchi sifatlaridan ma'lum bir badiiy maqsadda foydalangan. Diniy-tarixiy siymolar obrazlari Ogahiy lirikasining o'ziga xosligini ta'minlashda katta o'rin tutadi.

Mifologik obrazlar xalq dunyoqarashi, e'tiqodlari, etnografiyasi bilan bog'liq bo'lib, ularning og'zaki shakldan yozma shaklga siljishini ko'zatish, ogahiyona poetik talqinlarini tadqiq etish o'zbek adabiyoti taraqqiyotining barcha bosqichlarida, xususan, XIX asrda ham fol'klor bilan uzviy bog'liqda taraqqiy etganini ko'rsatadi.

Ogahiy mumtoz adabiyotimiz tasavvufiy mantig'iga xos an'ananing ham ijodiy davomchisi sanalib, uning lirik qahramoni ilohiy go'zallik oshig'idir. Sadoqat, halollik, iymon, e'tiqod, iroda, sabru qanoat, xokisorlik, faqirlik, bardosh, shukr, go'zallik, insoniy nafosat, latofat singari tuyg'ular egasidir. Bunday sifat va xususiyatlarni aks ettirishda shoir an'anaviy obrazlardan san'atkorona foydalandi.

Ogahiy lirik she'riyatida an'anaviy obrazlar vositasida go'zal poetik lavhalar yaratildi. Lirik qahramonning orzu hayollarini, kayfiyati, kechinmalarini, ruhiy-ma'naviy olamini ifodalashda mazkur obrazlar muhim o'rin tutadi. Ular orqali oshiqning zohiriy va botiniy sifatlari, pokiza insoniy tuyg'ulari ulug'lanadi.

Xullas, Ogahiy she'riyatida mifologik va diniy-tarixiy obrazlar shoirga hayotni terang falsafiy tadqiq etish, badiiy tasvirlash uchun boy fikr, g'oyalar taqdim etgan. Shoir mushohadasida sayqal topgan bu obrazlar romantik bo'yoqlarni kuchaytirish, soda va ravon uslubni namoyon bo'lishida, chukr falsafiy xulosalarni kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

A D A B I Y O T L A R:

1. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent., Ma`naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., Sharq, 1998.
3. Ogahiy. Asarlar. 4 jildlik. G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti., T., 1971.
4. Ogahiy. Ishq ahlining tumori. Tanlangan asarlar. T., 1999.
5. Ogahiy abadiyati. Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat un-ti, T., O`zbekiston, 1999.
6. N.Mallaev. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, T., 1974.
7. A.Abdug`ofurov. Muhammad Rizo Ogahiy. A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, T., 1999.
8. Zoxirov V. Ogahiy. T., 1961. Munirov K. Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. T., 1960.
9. Anisimov A.F. Istoricheskie osobennosti pervobytnogo myshleniya. M., 1971.
10. Afzalov M. Xalq ertaklarining tasnifi. O`zbek xalq ijodi. Toshkent. Fan, 1967.
11. Afanas`ev V.K. Gil`gamesh i Enkidu. M., 1979.
12. Axmad Yassaviy. Devoni Xikmat. Toshkent, 1992.
13. Adabiёт nazariyasi. 2 tomli. t.I, Toshkent, 1978.
14. Borovkov A.K. Voprosy izucheniya tyurkoyazychnogo eposa narodov Sredney Azii i Kazaxstana. // Voprosy izucheniya eposa narodov SSR. M.-L., 1958.
15. Gibiev S. Laktsi, ix proshloe i byt. Tiflis. SMOMPK, 1906.

16. Gulomov Ya. Xorazmning sug`orilish tarixidan. T., 1959.
17. Jirmunskiy V.M. Tyurkskiy geroicheskiy epos. c.54.
18. Jumanazarov U. O`zbek fol`klori va tarixiy voqelik. T., 1991.
19. Jumanazarov U. Tarix, afsona va din. T., 1990.
20. Karomatov H. Qur`on va o`zbek adabiyoti. – T.: Fan, 1993. – 96 b.
21. Kaskabasov s.A. Kazaxskaya vol`shebnaya skazka. – Alma-Ata: AN KazSSR,
1972. -260 s.
22. Komilov N. “Axtarii ashk etdiyu...” // Alisher Navoiy. G`azallar,
sharhlar. – T., 1991. – B. 109-115.
23. Komilov N. “Erur ko`ngulda safo ishq...” // Alisher Navoiy. G`azallar,
sharhlar. – T., 1991. – B. 115-121.
24. Laffasiy. Tazkirai shuaro. – urganch, 1992. – 69 b.
25. Mallaev N.M. O`zbek adabiyoti tarixi. K.1. – T.6 O`rta va oliy maktab,
1963. – 739 b.
26. Mallaev N.M. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: Adabiyot va
san`at, 1974. – 383 b.
27. Mif, fol`klor, literatura. – L.: Nauka, 1978. – 250 s.